

SHE'RIYATDA HAYVONOT RAMZLARI IFODASI

Shoxida KARAMOVA*

Annotatsiya: Hayvonot ramzlari tasviri badiiy adabiyotda juda qadimdan mavjud. Bularning ramziy ifodasida har bir hayvonning o'z xususiyatlaridan kelib chiqib ifoda etiladi. Har bir xalqning folklorida hayvonlar mavjud. Jonivorlar folklorida qadim-qadimda paydo bo'lgan. Aslida Qur'oni karimda ham hayvonlar zikr etilgan, qur'onda keltirilgan hayvonlar insonlarga ibrat bo'lishi, ulardan foydalanishi, halol va harom hisoblanishi aytilgan.

O'zbek xalq og'zaki ijodida, xususan, dostonlarda ot, tuya, it, bo'ri, Fransuz lingvomadaniyatida ayiq, bo'ri, tulki, it, mushuk kabi hayvonlar, Ingliz lingvomadaniyatida esa ayiq, quyon, mushuk (yo'lbars, pantera), ilon va to'ng'iz (cho'chqa) eng asosiy hayvon-qahramonlar hisoblanadi. Insoniy munosabatlarni hayvonlar obrazi orqali tasvirlash adabiy animalistikaning asosiy vazifalaridandir. Animalistning bosh vazifasi jonivorni aniq tasvirlash yoki ularga insonlarga xos xususiyat, harakat va his-tuyg'ularni berish bo'lib, bu qo'shilgan xarakteristikaning badiiy-obrazlilikini ta'minlaydi. Shu xususiyatlardan kelib chiqib ushbu maqolada o'zbek she'riyatida hayvonot ramzlari tasvirlangan she'rlar tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: *Hayvon obrazlari, inson va jonivor, ramz, lingvomadaniyat, adabiy animalistik.*

The Expression of Animal Symbols in Poetry

Annotation: The depiction of animal symbols has existed in literature for a very long time. In their symbolic expression, each animal is expressed based on its own characteristics. Animals exist in the folklore of every nation. Animals have appeared in folklore since ancient times. In fact, animals are also mentioned in the Holy Quran, and it is said that the animals mentioned in the Quran should be an example for people, be used by them, and be considered halal and haram.

In Uzbek folklore, especially in dastans, the most significant animals are the horse, camel, dog, and wolf, while in French linguoculture, the key animals are the bear, wolf, fox, dog, and cat. Similarly, in English linguoculture, the prominent animal figures are the bear, rabbit, cat (including the tiger and panther), snake, and pig. One of the main functions of animal imagery in literature is to describe human relationships through animal characters. The most vital task of an animalist writer is either to depict animals accurately or give them human characteristics, actions, and emotions, which enhances the figurative and artistic quality of their work.

Keywords: *Animal images, human and animals, symbol, linguoculturology, literary animalistics.*

Kirish

Inson tabiatning tarkibiy qismi va farzandi sifatida vujudga kelgan va rivojlangan. Insoniyat o'z his tuyg'ularini, kechinmalarini ta'sirliroq ifodalash maqsadida she'riyatdan foydalanishgan. Turli ramzlar, obrazlar, timsollarni keltirish ularni yanada o'qimishli bo'lishiga yordam bergan. Jumladan, hayvon ramzlari. Tabiatda va odam hayotida hayvonlar juda katta ahamiyatga ega. O'zbek folklorshunosligiga nazar solinsa, xalqning totemistik qarashlari natijasida ma'lum bir hayvonlarni e'zozlashi, ulardan madad kutishi sabab qo'shiqlarda hayvonlarga murojaat motivlari alohida e'tiborni tortadi.

Demak, badiiy adabiyotdagi hayvonlar obrazlari, inson va jonivor o'rtasidagi munosabat, jonivorlarning insonlar hayotidagi o'rni adabiyotda yangi hodisa emas. Hayvonlar inson kabi bir ummat ekani Qur'oni karimda zikr qilingan: «Yerdagi biror jonivor va biror ikki qanoti bilan uchadigan parranda yo'qki, (ular ham) sizlar kabi ummatlar bo'lmasalar» (Mansur, 2007: 624).

O'zbek xalq og'zaki ijodida, xususan, dostonlarda ot, tuya, qoramol va qo'y-qo'zilar kuylangan, chunki ular boylik, to'qlik va xotirjamlik ramzi deb tushunilgan. Fransuz lingvomadaniyatida ayiq, bo'ri, tulki, it, mushuk kabi hayvonlar ishtirok etadi. Ingliz lingvomadaniyatida esa ayiq, quyon, mushuk (yo'lbars, pantera), ilon va to'ng'iz (cho'chqa) eng asosiy hayvon-qahramonlar hisoblanadi.

Insoniy munosabatlarni hayvonlar obrazi orqali tasvirlash adabiy animalistikaning asosiy vazifalaridandir. Animalistning bosh vazifasi jonivorni aniq tasvirlash yoki ularga

* Dosent, F.f.n., Qarshi davlat universiteti, O'zbekiston, e-mail: shoxidakaramova@gmail.com

insonlarga xos xususiyat, harakat va his-tuyg'ularni berish bo'lib, bu qo'shilgan xarakteristikaning badiiy-obrazlilikini ta'minlaydi.

Zamonaviy She'riyatda Hayvonot Ramzlarining Ijobiylik va Salbiylik Xususiyatlari

Ramz – barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud bo'lib, majozdan birmuncha farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'pma'noligi bilan ajralib turadi. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmunni ifodalaydi (Imomov va boshqalar, 1990: 44). Masalan: sher – mardlik, tulki – makkorlik, bo'ri – ochko'zlik va hokazo. Ramzlar va ularning adabiyotda aks etishi eng qadimgi davrlarga borib taqaladi. Jumladan, "Avesto"da Axriman qora ot ko'rinishida tasvirlangan. Yoki Kultegin oq rangli ot bilan jangga kirganda doimo g'alaba qozongan. Hayvonlar obrazlari va ramzlari bilan bog'liq jihatlarni o'zbek folklorida juda ko'plab uchratish mumkin.

Zamonaviy she'riyatda ham hayvon ramzlari turli uslublarda ifoda etilgan. Hayvonlarning she'riyatda ijobiy va salbiy ma'noda akslanishi, she'rning tabiiyligini ko'rsatib beradi. She'riyatda bo'ri, it, ot, bulbul, zag'cha, ilon, to'ti, qaldirg'och va hokazo hayvon ramzlariga duch kelamiz. Shuningdek, shoirlar she'rlarida turli hayvon ramzlari ifodalanadi, har bir o'zgacha ma'no-mazmun tashiydi. Adabiyotimizning zabardast chinorlari sanalgan Muhammad Yusuf, Erkin Vohidov she'rlarini sevib o'qimaydigan kitobxon bo'lmasa kerak, albatta. Har bir she'rning o'ziga xos estetikasi, diltortarliligi kishini hayratga soladi. Ayniqsa, she'rlardagi hayvon ramzlari o'xshashligi bilan ajralib turadi.

Ayniqsa she'riyatda kiyik, ohu, jayron kabi hayvonlarning nomlari she'riyatda juda ko'p uchraydi. Hatto u nomlardan sarlavha sifatida ham foydalanilgan. Ma'lumki, she'r sarlavhadan boshlanadi. Iste'dodli shoir sarlavha orqali ham o'quvchi qalbiga yo'l topa oladi. Sarlavha esa, she'r mazmunidan kelib chiqadi. Nomlanishda yarim mazmun ifoda topsa, mavzu bilan uyg'unlikda o'z mantiqiy asosi va mohiyatiga ega bo'ladi. Bu hol ayniqsa ustoz shoirlar ijodida yorqin ifoda topadi. Masalan, Erkin Vohidovda "Chumoli", "Tuni bilan yig'labdi bulbul", "Arslon o'rgatuvchi", Abdulla Oripovda "Tulki falsafasi" "Maymuniyat", "Qozoqiston ohusi" she'rlari bo'lsa, shoir Muhammad Yusufda "Kapalak", "Erka kiyik", "Qaldirg'och", "Jayron", "Bulbul", "Oq tulpor", "Qarg'a", "Oq qo'chqor" kabi she'rlari mavjud.

She'riyatda ijobiy ma'no tashuvchi kiyik, ohu, jayron timsollari ham juda ko'p talqin qilinadi. Masalan,

*Erka kiyik, maylimi bir erkalasam,
Majnun bo'lib, sahrolarga yetaklasam.
Bu dunyoda birday g'arib men ham, sen ham,
Erka kiyik, maylimi bir erkalasam?...*
*Sening ko'zing qora, mening ko'zim qora,
Sening bag'ring yara, mening bag'rim yara* (Yusuf, 2016: 17).
(M.Yusuf "Erka kiyik")

Shoir Muhamad Yusufning "Erka kiyik" sarlavhali she'rida ham lirik qahramonning his-tuyg'ulari, ham kiyikning tashqi ko'rinishi, yashash sharoiti birgalikda beriladi. Ko'pchilik kiyiklar cho'llarda, ayrim turlari esa o'rmonlarda poda bo'lib yashaydi. She'rda shunga ishora keltirilgan. Shuningdek, she'rda "Majnun", "g'arib" so'zlarining ishlatilishi bejiz emas. Kiyiklar yolg'iz yashay olmaydilar. Shoir shu jihatga ishora qilish orqali yoridan ayrilganini, yorining noz-karashmalarini kiyikka o'xshatib, uni "erka kiyik" deya atamoqda. Shuningdek, kiyiklarning ko'zlari juda chiroyli bo'lib, ko'z ranglari yil fasllariga qarab rangini o'zgartirib turadi. Ular insonlarning sirli tabibi hisoblanadi. Kiyik shoxlaridan turli dori-darmonlar tayyorlanadi.

*Sollanasan kelinchakday boshing egib,
Jayron o'tgan so'qmoqlarga yoshing to'kib.
Qizil yuzing qon dilimga turar tegib,
Meningdek sen g'aribning ham parvonang yo'q...* (Yusuf, 2016: 69).
(M.Yusuf "Qizg'aldoq")

*Qon yig'latdi qaysi bag'ritosh,
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?
Oyog'ingga qo'yib yotay bosh,
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?* (Yusuf, 2016: 38)
(M.Yusuf "Jayron")

Kiyikning jayron, ohu singari turlari mavjud. Jayronlar juda qisqa umr kechirishadi. Bugungi kunga kelib jayronlar Qizil kitobga kiritilgan. Jayronlarning oyoqlari juda ingichka bo'lib juda tez yugura oladilar. Terisi juda silliq va mayin bo'lib, qimmatbaho hisoblanadi. Shuning uchun ham shoir uni kelinchakka qiyos etadi. Shuningdek, qizlarni jayronga o'xshatishadi. Hattoki, qizlarga Jayrona deya nom qo'yishadi.

Shoir Muhammad Yusufda "Oq qo'chqor" sarlavhali she'r bo'lib, she'rda xalqimizda azaliy odat sanalgan mehmonlarning, kelinchaklarning oyog'i ostiga qo'chqor so'yilishi tasviri berilgan.

*Bekang mendan so'ramay,
Poyimga qurbon qildi.
Jovdiragan ko'zlaring
Yuragimni qon qildi.
Oq qo'chqorim, oq qo'chqor,
Oldingda gunohim bor...
Olmos xanjar yaltirab,
To'sib qo'ydi quyoshni.
Ko'rdim umrimda ilk bor
Qonga tomgan ko'zyoshni.
Qarab turdim seskanmay,
Kechir men bag'ritoshni...
Oq qo'chqorim, oq qo'chqor,
Oldingda gunohim bor* (Yusuf, 2017: 33).

Qo'chqor qo'ying erkagi hisoblanadi. Qo'ylar bundan sakkiz ming yil avval xonakilashtirilgan. Qo'ylar asrlar mobaynida inson hayotida muhim oziq-ovqat mahsuloti (go'shti, yog'i), kiyim-kechak (teri, juni) va boshqa sifatida katta rol o'ynagan. Oq, qora, malla va ko'k rangli qo'ylar mavjud. Qo'chqorlarni, asosan, qurbonlik uchun so'yishadi. Qurbonlik uchun atalgan qo'chqor bir yoshga to'lgan bo'lishi shart. She'rda qurbonlik qilingan qo'chqorning qonga tomgan ko'z yoshini shoir juda ta'sirli tarzda ifoda etadi. Shoir aynan "Oq qo'chqor" deyishi bejizga emas. Chunki ko'p hollarda qurbonlik uchun oq qo'chqor tanlanadi va xonadonga xosiyat, poklik, ezgulik olib keladi deb qaralgan. Oq rangda soflik, mukammallik mavjud degan qarash ham mavjud. Yana shoirning "oldingda gunohim bor" deya ta'kidlashi shundanki, u mehmon bo'lib kelgani uchun qo'chqorning umri zavol topdi, uni mehmonni oyog'i ostiga so'yishdi. Shoir o'zini bunda aybdor sezib oldingda gunohim bor demoqda. O'zbek xalqida bunday urf-odatlar azal-azaldan shakllanib, bugungi kunda ham yashovchanligini saqlagan.

Shuningdek, she'riyatda it ramzi ham ko'p uchraydi. Itda ham salbiylik, ham ijobiylik mujassamlashgan. It butun dunyoda vafodorlik, sadoqat timsoli sifatida qaraladi. "It vafo – xotin jafo" singari maqollar ham mavjud. Zamonaviy she'riyatda it ramziy obrazining turli qirralari mavjud. Zero, yuqorida ta'kidlanganidek it o'zida ham ijobiy ham salbiy

bo'yoqdorlikni tashiydi. Salbiy jihatlariga to'xtalib o'tilsa, itda sayoq yurish odati mavjud bo'lib, aksariyat hollarda "daydi" so'zi bilan sinonim tarzida ishlatiladi.

Demak... onam o'lgan. Meni kuta-kuta u

Ilhaqlikda ado bo'lgan. Kechir, onajon!

Kechir meni! Kechir meni! Men odammanmi?

*Egasi yo'q sanqib yurgan bir qari **itman** (Vohidov, 2000: 42).*

Itlarning odamlarga o'xshash qiziq tomoni shundaki, ularda hasad, rashk qilish tuyg'ulari yaxshi rivojlangan. Shoir she'rda o'zini daydi, qari itga qiyoslaydi. Aynan bunday sifatlarni berishiga sabab daydi it kuni bilan ko'cha-kuyda yuradi. Faqatgina tunash uchun uyiga qaytib keladi. She'rda ham onaizorning o'g'ini kutishdagi ilhaqligi va shu intizorlik bilan dunyodan o'tgani tasviri berilgan.

Qop-qorong'u o'rmon...

Hatto tushlarimda ham,

*To'da-to'da **itlar** meni quvlaydi (Vohidov, 2000: 86).*

Itlarning ko'rish xususiyatlari yaxshi rivojlanmagan bo'lsa-da, mo'ylovlaridagi retseptorlar tufayli qorong'ulikda bemalol ko'ra oladilar. Itlar ham insonlar kabi tush ko'rish qobiliyatiga egadirlar. Tushdagi it dushmanga ta'bir qilinadi. Shoir tushida ko'rgan to'da-to'da itlarning quvlashi bu dushmanlarning ozoridan bezgan ko'ngli hatto, tushlarida ham taskin topa olmayapti. Itdan qochish esa qo'rquvni bildiradi.

Kemada bir joy topilar, o'rin bo'lmasa,

***It** singari bir burchakda yotib ketaman.*

Bu yerlarga tashlab qo'yma meni jigarim (Vohidov, 2000: 86).

Itlarning tunashi uchun odatda, alohida joy kerak emas. Ular turli burchaklarda, xonadonlarning ayvonlarida uxlaydilar. Shoir shunga ishora qilib, o'rin bo'lishi shart emas, biror burchak bo'lsa bo'ldi yotaveraman, demoqda. Itlar uxlashdan avval o'z joylarida uch marta aylanib, so'ng yotadilar. Imom G'azzoliyning "Daqoyiq ul-axbor" asarida shunday bir hadis keltirilgan: "Payg'ambar alayhissalom aytdilar: "It hargiz egasining eshigidan ketmas. Bu tariqada vafo qilib, Parvardigoriga itoat qilmoq ham solihlarning xulqidur" (Shayxzoda, 1958: 31) It – vafo timsoli hamdir.

Butun dunyo xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar va ularning bir qismi bo'lgan o'zbek xalqi orasida ham bo'ri totemi va bo'ri kultiga ishonch keng ommalashgan. Ajdodlarimiz orasida bo'ri totem hayvon sifatida alohida e'zozlanib kelingan. Qadimgi ota-bobolarmiz o'zini ko'kturk – osmon bo'rilaridan paydo bo'lgan deb hisoblagan. Xalqimizning bo'ri totemiga ishonchi izlari hozirgacha ayrim an'anaviy urf-odatlarimiz misolida sezilib turadi. Ayniqsa, bu tug'ilgan chaqaloqlarga ism qo'yish odatida yaxshi saqlanib qolgan. Masalan, hozirgacha tishi bilan tug'ilgan chaqaloqlarga bo'ri nomi bilan bog'lab ism qo'yish odati saqlanib qolgan. Bunday bolalar, odatda, rizqli bo'ladi, deya yaxshi niyat qilinadi. Tish bilan tug'ilgan o'g'il bolaga Bo'rivoy, qiz bolaga esa Bo'rigul deb nom qo'yadilar.

Adabiyotda esa bo'ri – ochko'zlik, laqmalik, qonxo'rlik xususiyatlarini aks ettiradi. U kuchli, chidamli va chaqqon hayvon hisoblanadi. Bo'rining tabiatan ochko'zligi ramz sifatida adabiyotga ko'chgan. Uning "qashqir" nomi ham mavjud.

***Bo'rining** qorni to'ydi,*

Go'sht ham tegdi joniga.

Echki, quyon, ot, qo'yni

Chaqirdi u yoniga.

Dedi: hozir to'q paytim,

Foydalanib qolinglar.

Menga dashnomlar aytib,

Tanqid qilib olinglar (Vohidov, 2007: 48).

Yuqorida ta'kidlanganidek bo'rilar shu darajada ochofat bo'lishadiki, hatto bitta bo'ri bitta qo'yni yeyish qobiliyatiga ega. Bo'rilarining fazilatlari juda qiziqarli. Ular o' o'n kungacha hech narsa yemasdan yashay oladilar. She'rda bo'ri o'zining fe'l-atvori boshqalar nazdida qandayligini bilish uchun majlis chaqiradi. Lekin aynan qorni to'q payti chunki agar qorni och bo'lganda u faqat yemish haqida o'ylay oladi, xolos.

O'rta chiqdi quyon,

Avaylab o'z jonini.

O'ltirar bo'ri polvon,

Qashlagancha qornini.

(E.Vohidov "Bo'ri chaqirgan majlis va beodob ot haqida latifa")

Bo'rilar vahshiy va kuchli bo'lishlariga qaramasdan, hech qachon birinchi bo'lib insonlarga hujum qilmaydilar. Ular insonlarda o'zlarini olib qochishni afzal biladilar. She'rda polvon so'zining berilishida ham uning kuchliligiga ishora bor.

Tillashibdir bo'ri birla tozilar,

Birlashibdir o'g'ri birla qozilar (Vohidov, 2007: 45).

Misralarda bir-biriga o'zaro sinonimlar berilgan. Ya'ni shoir bo'rini o'g'riga, tozini qoziga o'xshatmoqda. O'g'ri insonni hech ham to'g'ri yo'lga o'rgatib bo'lmaydi, uni qancha to'g'ri yo'lga boshlamang, baribir o'g'rilikni ko'ngli tusab qolaveradi. Shoir o'g'rini nega aynan bo'riga o'xshatdi? Sababi bo'rilarining hayoti o'rganilganda, ularda shunday xususiyat bo'lib, bo'rilarini qo'lga o'rgatishni imkon mavjud emas. She'rda o'xshash xususiyatlari mavjudligini tozi va qozi so'zlaridan ko'rish ham mumkin. Ular shunchaki qofiya uchun olingan so'zlar emas. Tozi itning bir turi bo'lib, qayerda ovqat hidini sezsa, dumini likkillatib paydo bo'ladi. Shoir uning shu xususiyatini qoziga ko'chirgan.

Bo'rilarining she'riyatda tasvirlanishi ularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ifoda qilingan. Masalan, bo'rilar qorni to'q paytida ham ko'ngilxushlik uchun qo'ylarni bo'g'izlab ketishi kuzatilgan.

Adabiyotda esa bo'ri – ochko'zlik, laqmalik, qonxo'rlik xususiyatlarini aks ettiradi. U kuchli, chidamli va chaqqon hayvon hisoblanadi. Bo'rining tabiatan ochko'zligi ramz sifatida adabiyotga ko'chgan. Uning "qashqir" nomi ham mavjud.

Xulosa

She'rlarda tasvirlanadigan barcha ramzlar, timsollar xalqning xususiyatlaridan, yashash tarzidan, kelib chiqishiga qarab olinadi. Har bir millatning o'z timsollari bo'lib, shoirlar o'z xalqlarini shu ramzlar, obrazlar orqali ko'rsatib bera oladilar. She'riyatda ramzlar serqatlamliligi bilan ajralib turadi. Ramzlar zamirida shoirning fikrlari, badiiy umumlashmalarini aks etar ekan, ayniqsa hayvonot ramzlarini ko'chma va o'z ma'nosida qo'llashga, inson hatti – harakatlari bilan muqoyasa qilishga harakat qiladi. Shu bilan bir qatorda ijobiy va salbiy xususiyatlarga ishora qilishga qo'l keladi. Kitobxonni esa ramzlarni chuqurroq tahlil etishga undaydi. Bu o'qirmanga estetik zavq berish bilan bir qatorda unga didaktik nasihat ham beradi. Shuning uchun ham badiiy adabiyotda hayvonot ramzlari tasviri xalq og'zaki ijodidan boshlangan bo'lsa-da, bugungi zamonaviy adabiyotda ham bu masalaga keng e'tibor qaratilib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR

Imomov, K., Mirzayev, T., Sarimsoqov, B., Safarov, O. (1990), *O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Darslik*, Toshkent: O'qituvchi.

Yusuf, Muhammad (2016), *Shoir sevgisi*, Toshkent: Noshir.

Yusuf, Muhammad (2017), *Elimda alyorim qolur*, Toshkent: O'qituvchi.

Mansur, Abdulaziz (2007), *Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri*, Toshkent: "Toshkent islom universiteti".

Vohidov, Erkin (2000), *Saylanma*, 2-3-jildlar, Toshkent: Sharq.

Shayxzoda, M. (1958), “Furqat haqida qaydlar”, *Furqat va Muqimiy haqida maqolalar*, Toshkent: O‘zdatnashr.